



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARI HISOBLANGAN BOLALARNI CHET EL FUQAROLARI TOMONIDAN FARZANDLIKKA OLINISHINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI QANDAY?

Naimova Ozoda Quدرات qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti 3-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10118723>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 03-November 2023 yil
Ma'qullandi: 10- November 2023 yil
Nashr qilindi: 13-November 2023 yil

KEY WORDS

*farzand asrab olish shartlari,
farzand asrab olish tartibi, vasiylik
va homiylik organlari, chet el
tajribasi, Oila kodeksi.*

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishni istagan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar farzandlikka olish to'g'risidagi arizani farzandlikka olinayotgan bolaning yashash joyidagi tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy Sudga, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat yoki Toshkent shahar sudiga berishlari lozimligi belgilangan

Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini. Albatta oila farzand bilan yana mustahkam, quvonchli va birdam bo'ladi. Lekin shunday oilalar borki, ularda farzand degan ne'mat berilmagan. Shunday holatlarni ko'rib turib davlatimiz tomonidan bir qancha qonun – qoidalar yaratilgan. Demak, shu qonun – qoidalar bilan tanishib chiqish lozim. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga ko'ra vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olishning asosiligi va farzandlikka olinayotgan bola manfaatlariga to'g'ri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi. Aka-ukalar va opa-singillarni turli shaxslar tomonidan farzandlikka olishga, qoida tariqasida, yo'l qo'yilmaydi. Biz ayni paytda farzand asrab oladigan oilalar bilan birgalikda farzand asrab ololmaydigan oilalar haqida ham batafsil keltirib o'tishimiz lozim. Demak, kimlar farzand asrab ololmaydi?

- ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;
- asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;
- qasddan sodir qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar;
- farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar.

Shunday vaziyatlar borki, farzandlikka oluvchi shaxslar o'rtasida ustunlik berilgan shaxslar ham mavjud. Keling, ular bilan tanishib chiqamiz:

- farzandlikka olinuvchining qarindoshlari;

- farzandlikka olinuvchi bola oilasida yashayotgan shaxs;
- aka-uka, opa-singillarni ular o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan - farzandlikka olayotgan shaxslar
- o'gay ota va o'gay ona;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- kasallik, baxtsiz hodisa oqibatida farzandlaridan ajralgan shaxslar.

Ko'rib turganimizdek ushbu holat bilan tanishib chiqdik. Endi farzandlikka oluvchilar tomonidan farzandlikka olinuvchi bolalarning haq-huquqlariga to'xtalib o'tamiz.

Farzandlikka olinayotgan bolaning farzandlikka olinishiga roziligi: 10 yoshga to'lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi. Farzandlikka olishda bolaning roziligi vasiylik va homiylik organlari yoki sud tomonidan farzandlikka olish to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganda aniqlanadi. Agar bola farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanayotgan bo'lsa va ularni o'z ota-onasi deb e'tirof etsa, farzandlikka olish farzandlikka olinayotgan bolaning roziligisiz amalga oshirilishi mumkin. Ota-onaning bolaning farzandlikka olinishiga roziligi: Farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi talab etiladi. Sud tomonidan farzandlikka olish to'g'risida qarori chiqarilgunga qadar ota-ona bergan roziligini qaytarib olishga haqli. Ushbu holatlarda esa farzandlikka olish ota-onaning roziligisiz amalga oshiriladi :

- ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;
- ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;
- ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa;
- ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo'lsa.

Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi. Farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar. Bola bitta shaxs tomonidan farzandlikka olingan taqdirda, uning manfaatlarini ko'zlab, bolaning huquq va majburiyatlari, agar farzandlikka oluvchi erkak bo'lsa, onasining iltimosiga ko'ra, agar farzandlikka oluvchi ayol bo'lsa, otasining iltimosiga ko'ra saqlanib qolishi mumkin. Agar farzandlikka olinayotgan bolaning otasi yoki onasi vafot etgan bo'lsa, vafot etgan otaning yoki onaning ota-onasi iltimosiga ko'ra bolaning shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy huquq majburiyatlari, agar bolaning manfaatlarini shuni talab etsa, vafot etgan otasining yoki onasining qarindoshlariga nisbatan saqlanib qolishi mumkin. Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi.

Demak, O'zbekiston bilan birgalikda bir nechta mamlakatlarda farzandlikka asrab olish tartibi haqida so'z yuritamiz. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 152-moddasida voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkinligi belgilangan bo'lib, mazkur talablar farzandlikka olinuvchilarning huquq va manfaatlarini to'la darajada himoya qila olmaydi. Boshqacha aytganda, farzandlikka oluvchi shaxslar qo'yiladigan talablar qayta ko'rib chiqilishi kerak. Bunda ularning yoshi chegarasi, oilaviy holati ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Bu boradagi xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyada turmush qurmagan shaxslarning bolalarni farzandlikka olishi taqiqlangan. Farzandlikka olgan ota-

onalar esa 25-45 yosh oralig'ida bo'lishi lozim. Shuningdek, er-xotin oliy ma'lumotli, nikoh tuzilgan davrdan boshlab, kamida uch yil o'tgan bo'lishi hamda o'tgan davr mobaynida bir martadan ortiq ajrashmagan bo'lishi talab etiladi. Germaniyada ham bolani er-xotinlar birgalikda farzandlikka olishlari mumkinligi belgilangan bo'lib, farzandlikka oluvchilarning yoshiga nisbatan senz o'rnatilgan (ayollar uchun – 21 yosh, erkaklar uchun – 25 yosh). Sud amaliyotiga ko'ra, bolalar ko'proq 35-40 yoshdan oshmagan er-xotinlarga farzandlikka beriladi.

AQShda amaldagi tartibga ko'ra, er-xotinning turmush qurganiga kamida ikki yil bo'lgan bo'lishi lozim. Agar turmush qurmagan erkak va ayol farzandlikka olish bo'yicha murojaat qilgan bo'lsa, ularning yoshi 25 yoshdan kichik bo'lmasligi kerak.

Xitoy Xalq Respublikasining 2007- yil 1- maydan boshlab kuchga kirgan «Farzandlikka olish to'g'risidagi qoidalariga» ko'ra, farzandlikka oluvchilarning yoshi 30-50 yosh oralig'ida bo'lishi lozim. Bolalar o'zaro nikohda hamda mazkur nikohda ikki yildan beri yashab kelayotgan va avval ikki martadan ortiq nikohdan ajrashmagan shaxslarga farzandlikka beriladi. O'zaro nikohda bo'lmagan yakka shaxslarga, shuningdek tana og'irligi belgilangan me'yordan ortiq bo'lgan shaxslarga farzandlikka berish taqiqlanadi.

Yana O'zbekiston Respublikasi voqealariga qaytadigan bo'lsak, Vasiylik va homiylik masalalari bo'yicha alohida maxsus vakolatli organning mavjud emasligi va mehribonlik uylari ustidan yetarlicha nazorat o'rnatilmaganligi sababli noxush holatlar kuzatilmoqda. Ma'lumot uchun: 2018 -yilning may oyida Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi 1- mehribonlik uyida aniqlangan holatlarga ko'ra mazkur mehribonlik uyining bir qator rahbar va mas'ul xodimlariga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Jinoyat ishiga muassasaning 10 nafar xodimi ayblanuvchi tariqasida jalb etilgan. Ularga nisbatan JKning 110, 115, 127, 129 -hamda 167-moddalari bilan ayb e'lon qilingan. Xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Belarus Respublikasida farzandlikka olingan bolalar hisobini yuritish xalq ta'limi boshqarmalari (bo'limlari) va Xalq ta'limi vazirligining Farzandlikka olish milliy markazi tomonidan amalga oshiriladi, hududlarda Markazning vakillari ish olib boradi. Germaniya Federativ Respublikasida esa, aholisi oltmish ming va undan ortiq bo'lgan har bir shahar (tuman)da bolalar va yoshlar masalalari bilan shug'ullanadigan hamda keng vakolatlarga ega bo'lgan maxsus organlar (Jugentum) tashkil etilgan. Ushbu organ tarkibiga vasiylik va homiylik masalalari bo'yicha kengash mavjud bo'lib, Kengash bolalarning maktabdan tashqari ta'lim olishi va bolalar uylari bilan bog'liq turli masalalar bo'yicha ish olib boradi.



Qonunchilikda farzandlikka olishning soddalashtirilgan tartibi mavjud emas. Mazkur holat yaqin qarindoshlar tomonidan farzandlikka olish tartibining odatdagi tartibi bilan bir xil jarayonlardan o'tishiga, rasmiylashtirish muddatlarining uzayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli bolalarni farzandlikka olishdan ko'ra, vasiylikka olish holatlari soni oshib bormoqda. Ma'lumot uchun shuni aytib o'tishimiz lozimki, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ma'lumotlarga ko'ra, 2019- yilning dastlabki olti oyi mobaynida 1785 nafar bola farzandlikka, 2439 nafari vasiylikka, 1085 nafari homiylikka, 114 nafari oilaga tarbiyaga berilgan. Xorijiy davlatlar, jumladan Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga qaraydigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida bolalarni ularning yaqin qarindoshlari tomonidan farzandlikka olishning soddalashtirilgan tartibi belgilangan. Shuningdek, chet el fuqarolari tomonidan Qozog'iston Respublikasi fuqarolarini farzandlikka olishning tartibi ham alohida belgilangan.

Bolalarni farzandlikka berish yoki olish to'g'risida yakuniy qarorga kelinishini ta'minlash hamda ularning farzandlikka olinayotgan oilada o'zi xohlaganidek hayot kechirishi mumkinligiga ishonch hosil qilish uchun bolani farzandlikka olgan shaxslar uchun sinov muddatini berish tartibi mavjud emas. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasida farzandlikka olishda xatolikka yo'l qo'yishning oldini olish uchun bolani farzandlikka berishdan avval «g'amxo'rlik vaqti» yoki «qo'shimcha vaqt» deb ataluvchi (qoida tariqasida bu muddat bir yilgacha davom etadi) vaqt joriy etilgan. Mazkur vaqt yakunida bolaning u farzandlikka olinayotgan oilaga qanchalik moslashganligi, bu oilaga berish haqiqatdan ham uning foydasi ekanligi to'g'risida xulosa qilinadi. Malayziyada esa «Farzandlikka olish to'g'risida»gi qonun (uning normalari aholining islom diniga e'tiqod qiluvchi qatlamiga nisbatan tatbiq etilmaydi) amalda bo'lib, unga ko'ra, farzandlikka olish sud tartibida amalga oshiriladi. Shuningdek, sud tomonidan oraliq buyruqlar chiqarilishi mumkin. Mazkur buyruqqa muvofiq sud bolani farzandlikka olish haqiqatdan ham uning manfaatlariga

mosligini aniqlash maqsadida 6 oydan kam, lekin ikki yildan ko'p bo'lmagan muddatga bolaga g'amxo'rlik qilish davrini belgilaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqiy bo'shliqlar va qonunchilikdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida hamda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan kelib chiqib, quyidagilarni taklif etishimiz mumkin.

1. «Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida»gi Nizom normalarini amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirgan holda farzandlikka olish sud tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritish lozim.

2. Farzandlikka oluvchilar uchun qo'yiladigan talablarni ularning yosh, oilaviy ahvolidan kelib chiqib, kengaytirish, bunda: farzandlikka olishga nomzodlar uchun belgilangan yoshning eng kichik darajasini belgilash; oilaning moddiy va ijtimoiy ahvolini, shu jumladan, muqim yashash joyiga ega bo'lishi hamda muqaddam nikohdan ajralgan shaxslar tomonidan bolalarni farzandlikka olishning tartibini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Xalq ta'lim vazirligi huzurida yoki undan mustaqil ravishda vasiylik va homiylik masalalari bilan shug'ullanuvchi alohida organni tashkil etish;

4. Farzandlikka olishni istovchilar uchun yanada qulaylik yaratish hamda o'zaro manfaatlar to'qnashuvini kamaytirish maqsadida farzandlikka olish bo'yicha tegishli hujjatlarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron shaklda va hududiy davlat xizmatlari markazlari orqali qabul qilish tartibini joriy qilish;

5. Rejalashtirilmagan homila natijasida yuzaga kelayotgan noxush holatlarni oldini olish maqsadida bir yoshgacha bo'lgan bolalarni farzandlikka berishning alohida tartibini joriy qilish, bunda farzandlikka olishning «oiladan oilaga» tizimini yaratish lozim. Bu tizim tug'ruq komplekslarida o'z farzandidan voz kechish va bolasini sotishga urinish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur holatda bolani farzandlikka berish hech qanday moddiy manfaatni ko'zlamagan holda sud tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

6. Qonunchilikda farzandlikka olishning soddalashtirilgan tizimini ishlab chiqish;

7. Bolalarni farzandlikka berish yoki olish to'g'risida so'nggi qarorga kelinishini ta'minlash, ularning farzandlikka olinayotgan oilada bolaning o'zi xohlaganidek hayot kechirishi mumkinligiga ishonch hosil qilish maqsadida bolani farzandlikka olgan shaxslar uchun sinov muddatini belgilash yoki ma'lum muddatga patronatga berish tartibini joriy etish lozim.



Farzandlikka olish xalqaro xarakterga ega bo'lishi va xalqaro xususiy huquq normalari vositasida tartibga solinishi uchun eng avvalo farzandlikka olayotganlar va farzandlikka olinuvchi shaxslar bir-birlari bilan chet el fuqarosi bo'lishi yoki farzandlikka olish xorijiy davlat hududida amalga oshirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan ham chet el fuqarolari tomonidan ham O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olish masalalari bir xil tartibga solinishi belgilangan bo'lib, bunda chet el fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishda alohida shartlar yoki tartib belgilanmagan. Bu borada istisno tariqasida faqatgina Oila kodeksi 237-moddasi 3-qismida agar farzandlikka olish natijasida farzandlikka olingan bolaning O'zbekiston Respublikasining qonun hujatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan bo'lsa, farzandlikka oluvchining qaysi fuqarolikka mansubligidan qat'i nazar, farzandlikka olish mumkin emasligi, farzandlikka olingan taqdirda esa u sud tartibida bekor qilinishi lozimligining belgilanganligini ta'kidlash lozim.



1965-yilgi “Farzandlikka olishda yurisdiksiya, qo’llaniladigan huquq va farzandlikka olish to’g’risidagi sud qarorlarini tan olish to’g’risida” gi Gaaga Konvensiyasi alohida o’ringa ega bo’lib, unda farzandlikka olinuvchilarga qo’yiladigan talablarning belgilanishi bilan farzandlikka olishning protsessual jihatlarini takomillashtirilgan. 1967-yil 24- aprelda Strasburgda imzolangan “Bolalarni farzandlikka olish to’g’risida” gi Yevropa Konvensiyasi 18 ta davlat tomonidan, jumladan, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Italiya, Latviya davlatlari tomonidan imzolangan bo’lib, farzandlikka olish borasidagi moddiy huquq normalarini unifikatsiyalashga qaratilgan. Ushbu Konvensiyada bir davlatda amalga oshirilgan farzandlikka olish ikkinchi davlatda tan olinishi uchun amalga oshirilishi lozim bo’lgan shartlar belgilangan. Shuningdek, ota-onasiga nisbatan farzand ega bo’lgan huquqlarga farzandlikka olinuvchi ham farzandlikka oluvchiga nisbatan ega ekanligi belgilangan. Bunda 18 yoshga to’lmagan, nikoh qurmagan va qonun bo’yicha voyaga yetmagan hisoblangan bolalar nazarda tutilgan. 1984-yilgi xalqaro xususiy huquq masalalari bo’yicha uchinchi maxsus Amerika konfrensiyasida qabul qilingan “Voyaga yetmaganlarni farzandlikka olish bo’yicha kollizion huquq to’g’risida” gi Konvensiya (Braziliya, Kolumbiya, Meksika, Chili va boshqa davlatlar tomonidan imzolangan) ga muvofiq esa farzandlikka olinayotgan bolaning roziligi, farzandlikka olish tartibi, bu boradagi formal talablarga nisbatan voyaga yetmagan shaxsning doimiy turar – joyi qonuni qo’llanilishi, farzandlikka olayotgan shaxsning qonuni esa uning farzandlikka olish talablariga javob berishi, yoshi va nikohda bo’lishi masalalariga nisbatan qo’llanilishi belgilangan. Yevropa hamjamiyati vazirlar qo’mitasining 1987-yilgi “Tarbiyalovchi oilalar to’g’risida” gi tavsiyalarda ham farzandlikka olish masalalari tartibga solingan. Shuningdek, 1993-yil 22- yanvarda MDH davlatlari tomonidan imzolangan “Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo’yicha huquqiy yordam ko’rsatish to’g’risida” gi Konvensiyada ham farzandlikka olish masalalari tartibga solingan. Mazkur

hujjatning 37-moddasida xorijiy farzandlikka olishda farzandlikka olinuvchining fuqaroligi mansub bo'lgan davlat qonuni qo'llanilishi, shuningdek, farzandlikka olinayotgan bolaning ham rozligi olinishi belgilangan. Shuningdek, 52-moddada farzandlikka olish haqidagi qarorlarning boshqa davlat hududida tan olinishi nazarda tutilgan.

O'z navbatida, xalqaro – huquqiy hujjatlar qatorida 1993-yil 29-maydagi “Bolalar muhofazasi va xorijiy farzandlikka olish bo'yicha hamkorlik to'g'risida” gi Gaaga Konvensiyasini keltirish mumkin bo'lib, ushbu hujjat yuqorida qayd etilgan hujjatlardan farqli tarzda bevosita xalqaro xususiy huquqda farzandlikka olish masalalarini tartibga solishga qaratilgan. Hozirgi kunda 71 ta davlat mazkur Konvensiyaning ishtirokchisi hisoblanib, ular qatorida Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Kanada, Finlandiya, Fransiya, shuningdek Belarus va Gruziya davlatlarini keltirish mumkin. Quyidagilar ushbu Konvensiyaning maqsadlari sifatida belgilangan:

- a) Xorijiy farzandlikka olish bolaning manfaatlarini inobatga olgan holda, xalqaro huquqda e'tirof etilgan uning asosiy huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi uchun kafolatlar yaratish;
- b) Bunday kafolatlarning amal qilishini ta'minlash va buning vositasida bolalarning o'g'irlanishi, sotilishi va ular bilan savdo qilishning oldini olish uchun Kelishayotgan davlatlar o'rtasida hamkorlik tizimini yaratish;
- c) Konvensiyaga muvofiq amalga oshirilayotgan farzandlikka olishning Kelishayotgan davlatlarda tan olinishini ta'minlash.

Farzandlikka olish masalalari bo'yicha 1989-yilda qabul qilingan «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaga binoan, «Farzandlikka olish tizimi mavjud bo'lishiga xayrihoh bo'lgan yoki uni tan olgan ishtirokchi davlatlar bolaning eng yaxshi manfaatlarini birinchi navbatda tan olinishini ta'minlaydilar». Ular:

- a) bolaning farzandlikka olinishiga vakolatli hokimiyat organi tomonidan ruxsat berilishini ta'minlaydilar. Bu organlar qo'llanilayotgan qonunlar va harakatlar hamda ishga talluqli barcha ishonchli axborotlar asosida farzandlikka olinishining ota-onalar, qarindoshlar va qonuniy vasiylarga nisbatan bolaning statusi nuqtayi nazaridan mumkin yoki mumkin emasligini aniqlab beradi. Talab qilinadigan bo'lsa, zaruriy maslahatlar asosida manfaatdor shaxslar o'z roziliklarini bayon etadilar;
- b) bola uning tarbiyasi yoki farzandlikka olinishini ta'minlay oladigan oilaga tarbiya uchun berilishi mumkin bo'lmasa, boshqa davlat fuqarolari tomonidan farzandlikka olinishini uni tarbiyalashning muqobil usuli deb tan oladi; bunda bolaning o'zi tavallud topgan mamlakatda ta'lim-tarbiya olishini ta'minlashning imkoni bo'lmasligi lozim;
- c) bola boshqa mamlakat fuqarolari tomonidan farzandlikka olinganda ham o'z mamlakatida farzandlikka olinganda qo'llaniladigan kafolatlar va normalar qo'llanilishini ta'minlaydilar;
- d) bola boshqa mamlakat fuqarolari tomonidan farzandlikka olingan taqdirda bola muammolarining hal etilishi uni farzandlikka olgan shaxslarga asossiz moliyaviy foydalar keltirmasligini ta'minlash maqsadida barcha zarur choralarni ko'radilar (21-modda).

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 27-moddasiga binoan « O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishda ham Oila kodeksining 157-167-moddalari talablariga rioya qilinishi lozim». Agar farzandlikka olish natijasida

farzandlikka olingan bolaning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan bo'lsa, farzandlikka oluvchining qaysi davlat fuqarosi ekanligidan qat'i nazar u bolani farzandlikka olishi mumkin emas, agar u bolani farzandlikka olgan bo'lsa, bu ish sud tartibida bekor qilinishi kerak. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan va O'zbekiston hududidan tashqarida yashab turgan bolani farzandlikka olish farzandlikka oluvchi shaxs fuqarolikda turgan davlatning vakolatli organi tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa hamda bolaning ota- onasi yoxud ulardan biri O'zbekiston Respublikasi hududidan jo'nab ketishdan avval istiqomat qilgan tuman, shahar hokimining farzandlikka olish to'g'risidagi ruxsatini oldindan olgan bo'lsagina O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.



Ushbu maqolaning xulosa qismida shuni yoritib o'tishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblangan bolalarni chet el fuqarolari tomonidan farzandlikka olinishini huquqiy tartibga solish muammolari tahlil qilishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida nazarda tutilgan quyidagi holat, ya'ni chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olish mazkur bola doimiy yashayotgan davlatning qonunchilikda belgilangan tartibda, farzandlikka olinayotgan bola yetim va farzandlikka oluvchilarning yoki oluvchining yaqin qarindoshi bo'lgan yoki o'z vaqtida turli sabablarga ko'ra farzandlikka olinishi nunkin bo'lmagan hollarda amalga oshiriladi. Chet el fuqarosi yoki fuqarosi bo'lmagan shaxs bo'lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O'zbekiston Respublikasiga kirishi va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashi uchun O'zbekiston Respublikasi vakolatli organining ruxsatnomasi talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblangan bolalarni chet el fuqarolari tomonidan farzandlikka olinish O'zbekiston Respublikasi bilan bir xil tartibda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro xususiy huquq. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.// H.R.Rahmonqulov va boshq. / H.N. Boboyev, M.X.Rustamboyev, O.Oqyulov, H.B.Rahmanovlarning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYI nashriyoti, 2002, 488-bet.
2. Xalqaro xususiy huquq : Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019.-354 bet
3. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.
4. Farzandlikka olish masalalari bo'yicha 1989-yilda qabul qilingan «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya.
- 5 "Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida" gi Konvensiya.

